

@buxdu_uz

@buxdu1

@buxdu1

www.buxdu.uz



E-ISSN 2181-1466
9 772181 146004



ISSN 2181-6875
9 772181 687004

2/2025

Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University



BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTI



2/2025

Artikov A.X.	The features and classification of allusion (literary and poetic allusion)	100
NAVOIY GULSHANI		
Turayeva M.T.	«Odamki bashar nasli silkiga erur payvand»...	104
TARIX *** HISTORY *** ИСТОРИЯ		
Жахонов Т.Х.	Шимолий Бактриянинг кушонлар даври мудофаа иншоотлари борасида айрим мулоҳазалар (буржлар мисолида)	108
Кличев О.А.	Бухоро қўшбеги девонхонаси дафтарларининг таҳлили	114
Toshpo'latov M.Z.	Uchquduq tumani yoshlarini ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash yuzasidan amalga oshirilgan chora-tadbirlarning tarixiy tahlili (2017-2024)	119
Narziyeva R.R.	“Xan daryosi bo'yidagi mo'jiza” yoxud “Koreys mo'jizasi”ning yaratilish asoslari	127
Fozilov M.A.	Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda jadidchilik siyosiy harakatining roli	132
Hayitov Sh.A., Elmurodova N.B.	1977-1978-yillarda “Vatan” jamiyatining xorijdagi o'zbeklar va ularning uyushmalari bilan aloqalari tarixidan (arxiv manbalari asosida)	136
Abdullayeva D.A.	Tarixiy yodgorliklar muhofazasi va ularni ta'mirlash amaliyoti tarixidan	141
FALSAFA VA HUQUQ, SIYOSATSHUNOSLIK *** PHILOSOPHY, LAW AND POLITICAL SCIENCES *** ФИЛОСОФИЯ, ПРАВО И ПОЛИТОЛОГИЯ		
To'ychiyeva R.A.	Hindiston tashqi siyosatining asosiy tamoyil va yo'nalishlari	146
Shukurov A.K.	O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining konseptual-huquqiy asoslari	162
Xodjimuratova D.S.	“Veloyate Fakih” Eron teokratik boshqaruv modelining asosi sifatida	169
Усманова Х.Х.	Национальная стратегия целей устойчивого развития Республики Узбекистан и многостороннее сотрудничество	175
Musayev M.T.	Missionerlikning noan'anaviy ko'rinishlari va ularni namoyon bo'lish shakllari	179
Turdiyev B.S.	Yangi O'zbekiston davlat siyosatini amalga oshirishda rivojlanish strategiyalarining roli	184
MUNOSABAT *** REFLECTION *** ТОЧКА ЗРЕНИЯ		
Ahmedov A.R., Axmadov A.H.	Buxoroni sharif qilgan adiblarga xiyobon qilsak	191

UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI YARATISHDA JADIDCHILIK SIYOSIY HARAKATINING ROLI

Fozilov Mirashraf Azamatovich,

Buxoro davlat universiteti, Tarix va yuridik fakulteti

Siyosatshunoslik yo'nalishi 2-bosqich talabasi

mirashraf2005@icloud.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Uchinchi Renessans shakllanishida jadidchilik siyosiy harakatining beqiyos o'rni batafsil tahlil etilgan. Unda jadidlarning o'z davri uchun innovatsion bo'lgan yangi siyosiy g'oyalar asosida ta'lim tizimini isloh qilishga bo'lgan intilishlari va bu jarayondagi faoliyatlari chuqur yoritilgan. Xususan, ular tomonidan ilgari surilgan ilm-fan va ma'rifatga asoslangan ta'lim tizimi faqat yosh avlodni tarbiyalash bilan cheklanib qolmay, balki jamiyatda yangi dunyoqarash shakllanishiga, yangilikka intiluvchi ijtimoiy qatlamni yuzaga keltirishga xizmat qilganligi ko'rsatib o'tilgan. Maqolada, shuningdek, ularning siyosiy va madaniy sohalardagi g'oyalari keyinchalik mamlakatning rivojlanishiga asos bo'lganligi alohida qayd etilgan.

Kalit so'zlar: jadid, renessans, ideosfera, uyg'onish davri, modernizatsiya, strategiya.

РОЛЬ ПОЛИТИЧЕСКОГО ДВИЖЕНИЯ ДЖАДИДОВ В СОЗДАНИИ ФУНДАМЕНТА ТРЕТЬЕГО РЕНЕССАНСА

Аннотация. В данной статье подробно рассматривается исключительная роль политического движения джадидов в процессе формирования Третьего Ренессанса. Особое внимание уделяется их стремлению к реформированию системы образования на основе инновационных для своего времени политических идей, а также анализируется их деятельность в этом направлении. В частности, показано, что предложенная джадидами система образования, основанная на принципах науки и просвещения, не ограничивалась лишь воспитанием молодого поколения, но также способствовала формированию нового мировоззрения в обществе и появлению социального слоя, ориентированного на прогрессивные изменения. Кроме того, в статье подчёркивается, что их идеи в политической и культурной сферах впоследствии стали основой для долгосрочного развития страны.

Ключевые слова: джадиды, ренессанс, идеосфера, эпоха возрождения, модернизация, стратегия.

THE ROLE OF THE JADID POLITICAL MOVEMENT IN BUILDING THE FOUNDATIONS OF THE THIRD RENAISSANCE

Abstract. This article provides a detailed analysis of the exceptional role of the jadid political movement in the process of forming the Third Renaissance. Particular attention is given to their efforts to reform the education system based on the innovative political ideas of their time, as well as an examination of their activities in this direction. Specifically, it is shown that the education system proposed by the jadids, which was grounded in the principles of science and enlightenment, was not limited to the upbringing of the younger generation but also contributed to the formation of a new worldview in society and the emergence of a social class oriented toward progressive changes. Furthermore, the article highlights that their ideas in the political and cultural spheres later became the foundation for the country's long-term development.

Keywords: jadid, renaissance, ideosphere, era of awakening, modernization, strategy.

Kirish. O'zbekiston tarixida, ayniqsa, XX asrning boshlarida, jahon madaniyati va san'ati yangilanishi bilan bog'liq bir qator muhim o'zgarishlar yuz berdi. Ushbu davrda, jadidchilik harakati o'zining ijtimoiy, siyosiy, ilmiy va madaniy yangiliklari bilan o'ziining muhim o'rnini egalladi. Uchinchi Renessans deb atash mumkin bo'lgan davrda jadidchilik harakati ta'sirida yangi fikrlar, yangi pedagogik, madaniy, ilmiy va san'atiy g'oyalar yuzaga keldi. Bu harakatning asosiy maqsadi millatni yangilash, jahonning zamonaviy ilmlari bilan tanishtirish, shuningdek, o'z xalqining madaniy va ilmiy salohiyatini kuchaytirish edi.

Jadidchilik XIX asrning oxiri XX asrning birinchi choragida Markaziy Osiyo, Qrim, Kavkaz, Volga bo'yi hududlarida shakllangan bo'lib, aynan shu harakat yangi zamonaviy maktab, matbuot va

taraqqiyotning ilg'or usul va yo'llarini yoqlab chiqdi. Jadidchilik Turkiston xalqlarining ma'naviy, milliy-madaniy va siyosiy yuksalishida muhim o'ringa ega bo'ldi. Ular o'z faoliyatlarida iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy jihatlarning eskicha ko'rinishini yangi usullar bilan o'zgartirish tarafdorlari edilar. Ularning asosiy maqsadi musulmon jamiyatlarini yangilash, ilm-fan, ta'lim, madaniyat va siyosatni zamonaviylashtirish edi. Jadidchilar o'z vaqtida qariyb barcha sohalarida yangiliklar yaratishga harakat qilishdi, shu jumladan, yangi ta'lim usullari, yangi pedagogik tizimlar, yangi badiiy ifodalar kiritishga intildilar.

Jadidchilik harakatining ta'lim tizimida amalga oshirgan o'zgarishlari alohida ahamiyatga ega edi. Jadidchilar o'zining ta'lim berish usullarini Yevropa tarzida tashkil etishga harakat qilishdi. Ular eski an'analarga qarshi turib, zamonaviy ilm-fan va texnologiyalarni keng joriy etishdi. Uchinchi Renessansni yaratishdagi jadidchilik harakatining roli juda katta. Jadidchilik harakati ilm-fan va san'atni yangilashga qaratilgan harakat bo'lib, bu davrda o'zbek adabiyoti, san'ati va ilm-fanining yuksalishi kuzatildi. Jadidchilar yangi, zamonaviy san'at va adabiyotning shakllanishiga hissa qo'shishdi. Bu davrda tasviriy san'at, teatr, musiqa, adabiyotda yangi uslublar va shakllar yaratilgan. Masalan, Abdulla Qodiriy va Cho'lpon kabi ko'plab yurtparvar yozuvchilar o'z asarlarida yangi adabiy usullarni qo'llashgan, ular o'zbek adabiyotida modernizm va yangiliklarni targ'ib qilishgan. Bularning barchasi jadidchilik harakatining ijtimoiy-ma'rifiy, madaniy yangilanishga bo'lgan intilishining bir qismidir.

Asosiy qism. Yurtimizda Uchinchi Uyg'onish davri Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, XX asrda ulug' ma'rifatparvar jadid ajdodlarimiz tomonidan amalga oshirilishi mumkin edi. Chunki bu davrda vatanparvar va islohotchilar faoliyat dasturi xalqimizning milliy uyg'onishiga bag'ishlanib, Turkistonda xurofot va qoloqlikdan olib chiqish uchun o'zlarining bor kuch va g'ayratlarini sarfladilar. Millat taqdiri va kelajagi uchun o'zlarining jonlarini qurbon qilib, "Ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lishi ham mumkin emas" degan hadisi sharifni ustuvor g'oya sifatida o'rta qo'yganlar.

Bu davrda Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydulla Xujayev, Fayzulla Xo'jayev, Akmal Ikromov, Abdurauf Fitrat, Is'hoqxon Ibrat, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir, Ashurali Zohiriy, Xoji Muin va boshqa yana yuzlab ulug' insonlar Milliy uyg'onish va Millatparvarlik harakatining oldingi saflarida turgan. Ular yangi usul maktablari bilan bir qatorda, odamlarning dunyoqarashi va turmush tarzini o'zgartirishga qaratilgan gazeta-jurnallar, nashriyot va kutubxonalar, teatrlar tashkil etganlar [1].

Ular yangi usul maktablari bilan bir qatorda, xalq dunyoqarashi va yashash tarzini o'zgartirishga yo'naltirilgan gazeta-jurnallar, nashriyot va kutubxonalar, teatrlar faoliyatini yo'lga qo'yganlar. Ammo ular o'sha davrdagi siyosiy tuzum va vaziyat sababli o'z dasturlariga qo'ygan ezgu maqsadlarni amalga oshirishga muvaffaq bo'lmadilar. O'sha davrdagi siyosat va tuhmatlar sabab dastlab rus podsholigi, keyinchalik sho'rolar hukumati siyosatining qurboniga aylanishdi. Natijada, milliy tiklanish va taraqqiyot harakati xalqimiz tarixida o'chmas iz qoldirdi. Ularning milliy ozodlik va xalq baxt-saodati yo'lida jonini fido qilish yo'lidagi ilmiy-ma'rifiy, g'oyaviy, mafkuraviy merosi bugungi davr uchun poydevor vazifasini o'tamoqda. Q.Nazarov fikricha, "jadidlarning konseptual g'oyalari hozirgi o'zgarishlar amaliyotining ma'naviy darakchisi, bugungi kundagi strategiya va keng qamrovli islohotlarning genetik asosi bo'lib xizmat qiladi. Chunki ular siyosiy dasturlarida umuminsoniy xususiyatlarni tarannum etuvchi, erk va ozodlik, adolat va mustaqillik g'oyalarini olg'a suradi. Bu esa jadidlarning mustaqilligimiz uchun g'oyaviy asos bo'la oladigan tashabbuslaridan darakdir" [2].

Davlatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng, jamiyat ideosferasini o'zgartirish va milliy tiklanishimiz bilan shug'ullanish borasida ko'plab islohotlarni amalga oshirishga to'g'ri keldi. Mamlakatimizning yangi taraqqiyot bosqichida milliy tiklanishdan milliy yuksalishga o'tganimizdan keyin, Uchinchi Renessans poydevorini bunyod etishni davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev strategik vazifa sifatida belgilab oldi. "Uchinchi Renessans" tushunchasi dastlab Prezidentimiz davlatimiz mustaqilligining 29 yilligiga bag'ishlangan bayramidagi nutqida tilga olib, shunday deydi: "Xalqimizning ulug'vor qudrati jo'sh urgan hozirgi zamonda O'zbekistonda yangi bir uyg'onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda, desak, ayni haqiqat bo'ladi. Chunki bugungi O'zbekiston – kechagi O'zbekiston emas. Bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas... "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" degan da'vatkor g'oya hayotimizga tobora chuqur kirib bormoqda. Biz ayni shu asosda xalqimiz hayotini tubdan yaxshilash, inson huquq va erkinliklari, qonun ustuvorligi va ijtimoiy adolatni ta'minlash, innovatsion taraqqiyot borasida muhim qadamlarni qo'ymoqdamiz" [3]. Shu ma'noda, hozirgi kunda xalqimiz ideosferasida muhim o'rin tutgan, umummilliy harakatga aylangan "Yangi O'zbekiston" g'oyasi asosida milliy tariximizning Birinchi va Ikkinchi renessans davrlarida asos solgan ajdodlarimizning bunyodkor va ezgu maqsadlarini mujassam etdi.

Ular tomonidan ilgari surilgan tashabbuslarni tahlil etar ekanmiz, jadidlar ta'limotining mamlakatimizdagi yangi ideosferadagi o'zgarishlarga ta'sirini quyidagi innovatsion g'oyalari bilan mushtarak ekanligini ko'ramiz:

birinchidan, ta'lim va ma'rifat. Jadidlar yangi usul maktablarini tashkil etib, o'qitish usullarini isloh qildilar. Ular an'anaviy ta'lim tizimidan farqli ravishda ilm-fan, matematika, geografiya kabi dunyoviy fanlarni keng joriy etishga e'tibor qaratdilar. Bu orqali xalq orasida ilm-fan tarqalishiga, fikr kengligi va zamonaviy bilimlarga ega bo'lishga yo'l ochdilar. - Ularning faoliyatlari natijasida yangi o'quv darsliklari yaratildi, ular milliy tilda bo'lib, ko'plab zamonaviy bilimlarni o'z ichiga oldi.

ikkinchidan, madaniy va ma'naviy islohotlar. Jadidlar milliy madaniyatni rivojlantirish va saqlab qolish tarafdorlari edi. Ular milliy qadriyatlarni qadrlab, o'z navbatida, zamonaviy madaniyat bilan hamohang kelishga intildilar. Ular madaniy yangilanish orqali jamiyatda ma'rifatparvarlik va milliy uyg'onish g'oyalarini yoydilar. Bu esa xalqning o'zlikni anglashiga, milliy g'urur va qadriyatlarni tiklashiga olib keldi.

uchinchidan, ijtimoiy va siyosiy g'oyalar. Jadidlar jamiyatda isloh qilish, siyosiy erkinlik va adolat g'oyalarini ilgari surdilar. Ular demokratik boshqaruv usullarini joriy qilish, adolatli jamiyat barpo etish tarafdori edilar. Ularning asar va maqolalari orqali ijtimoiy adolat, erkinlik, tenglik va milliy mustaqillik mavzulari ko'tarildi. Bu g'oyalar mustaqillik uchun kurashda kuchli ma'naviy va intellektual tayanch bo'lib xizmat qildi.

to'rtinchidan, Zamonaviylik va modernizatsiya uyg'unligi. Jadidlar G'arbning rivojlangan mamlakatlaridagi ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik taraqqiyotdan o'mak olishga intildilar. Ular o'zlarining yangi tashabbuslari orqali xalqni zamonaviy ilm-fan, texnologiyalar bilan tanishtirishga harakat qildilar. Ular modernizatsiyani ko'zda tutgan hodisalarni o'z yashash muhiti bilan uyg'unlashtirgan holda amalga oshirishga intildilar, shu bilan birga, milliy o'ziga xoslikni yo'qotmaslikni va saqlashni muhim deb bildilar.

beshinchidan, ayollar ta'limi va jamiyatdagi o'rni. Jadidlar ayollar ta'lim olishiga katta ahamiyat berib, ularning jamiyat hayotidagi rolini, o'rnini oshirish tarafdori edilar. Ular ayollar uchun maxsus o'quv muassasalari ochib, ularning o'qimishli, bilimli bo'lishini qo'llab-quvvatladilar. Ayollarning ijtimoiy va iqtisodiy faolligini oshirishga harakat qilib, bu orqali jamiyatdagi barcha qatlamlarning bilim va savodxonligini oshirishga harakat qildilar. Bu jamiyatda keng ko'lamdagi ijtimoiy o'zgarishlarga turtki berdi. Umuman olganda, jadidlar ta'limoti O'zbekiston jamiyatida o'zgarishlarga muhim turtki bergan bo'lib, ular o'z zamonasida milliy uyg'onish va ma'rifatparvarlikka katta hissa qo'shgan shaxslar hisoblanadi. Ularning g'oyalari va tashabbuslari hozirgi kunda ham O'zbekistonda zamonaviylik va milliy istiqloq g'oyalarini ilgari surishda muhim rol o'ynaydi.

Fitrat balki Turkiston siyosiy hayotida yirik davlat arbobi sifatida abadiyatga o'z nomini muhrlab qo'ydi. Muallif tomonidan ilgari surilgan taraqqiyrarvarlik g'oyalari, uning ibratli siyosiy faoliyati va fuqarolik jasorati faqatgina olim yashab ijod etgan davr uchun ahamiyat kasb etmay, bugungi kunda ham ilm va ma'rifat ixlosmandlari uchun o'ziga xos mahorat va ibrat maktabi bo'lib kelmoqda. Fitratning butun umri davomida Turkistonning ozod va mustaqil bo'lishi uchun ilm-ma'rifatni targ'ib qilganligini uning "Islohot va Buxoro" dasturi ishlab chiqqanligi misolida ko'rishimiz mumkin. Dasturda o'nta nozirdan iborat "Nozirlar sho'rosi" tuzilib, uning tarkibiga quyidagilar kiritilgan: "maorif nazorati, yer ishlari nazorati, harbiy ishlar nazorati, vaqf nazorati, moliya nazorati, ichki ishlar nazorati, adliya nazorati, militsiya nazorati, yo'llar va sanoat nazorati, xorijiy ishlar nazorati" [4]. Shuningdek, Fitrat jamiyat tafakkurini o'zgaritish yo'lidan borar ekan, bunda xalq orasida ma'rifat tarqatishni, maktab va oliy o'quv yurtlarini isloh qilishni uqtiradi: "Bas, ma'lum bo'ladiki, bani Odam ibtidodan to hozirgi kungacha taraqqiy qilib kelgan va taraqqiy qiladi ham. Shunday qilib, odamda hayot g'oyasi bor ekan, ya'ni hazrati Xoliqi hakim insonlar uchun bir baland martabani va bir a'lo manzilni ko'rsatgan ekan, inson ham unga qarab harakat qiladi, taraqqiy etadi" [5].

Ma'rifatparvar shoir, yozuvchi, dramaturg, tarjimon va jamoat arbobi Cho'lpon (1897-1938) milliy uyg'onish harakatida o'chmas iz qoldirgan jadid hisoblanadi. U Turkistonda hurfikrlikka erishish va milliy g'oyani yuksaltirishda adabiyotning beqiyos ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Shuning uchun u: "Hech to'xtamasdan harakat qilub turg'an vujudimizga, tanimizga suv-havo naqadar zarur bo'lsa, maishat yo'lida har xil qora kirlar ila kirlangan ruhimiz uchun ham shul qadar adabiyot kerakdir. Adabiyot yashasa - millat yashar. Adabiyoti o'lmag'an va adabiyotining taraqqiysiga chalishmagan va adiblar yetishdirmag'an millat oxiri bir kun hissiyotdan, o'ydan, fikrdan mahrum qolub, sekin-sekin inqiroz bo'lur. Muni inkor qilib bo'lmas. Inkor qilg'an millat o'zini inqirozda ekanun bildirur!" [6]. Cho'lpon Sharq mumtoz shoirlari asarlarini mutolaa qilish hamda jadid matbuotini kuzatish yo'li orqali adabiy, ijtimoiy-siyosiy bilimlarini oshirgan va buni butun jamiyat hayotiga targ'ib qilishga harakat qilgan.

Munavvarqori Abdurashidxonov (1878-1931) ham jamiyat ideosferasini yuksaltirish masalasiga to'xtalar ekan, bu borada ta'lim va tarbiyaga alohida e'tibor qaraish lozimligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, ta'lim-tarbiya milliy g'oya va milliy o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurni, mustaqil fikrni shakllantirish vositasidir. "Tarbiyali bola ulug'larni izzat va hurmat qilur. O'zi barobarig'a yaxshi muomala qilur. Va

o'zidan kichiklarga shafqat va marhamat qilur. Har kimning qadrini bilur. O'zidan rozi qilmoqg'a harakat qilur. Qo'lidan kelganicha boshqa insonlarga yordam berur... Ota va onasining, muallimva xalfalarning so'zlaridan chiqmas. Har ishda insofni qo'ldan bermas. Birovdan bir yaxshilik ko'rsa, esidan chiqarmas. Qo'lidan kelmagan ishni ustig'a olmas. Ustig'a olgan xizmatini qilmay qoldirmas. Millat degan so'zni jonidan ortiq suyar" [7]. Demak, mutaffakir jamiyat taraqqiyotida ilm-ma'rifat rolini e'tirof etib, Turkiston xalqini ilm-fan yutuqlaridan bahramand bo'lishga chaqiradi.

Davlat va jamoat arbobi Fayzulla Xo'jayev tomonidan ilgari surilgan g'oya va islohotlar hozirgi davrda buyuk allomalar, aziz-avliyolar merosini, atoqli davlat arboblari, yengilmas sarkardalar, zamondoshlarimiz jasoratini yoshlarga etkazishda, ularning qalbida Vatanga sadoqat, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini kuchaytirishda ulkan hissa qo'shadi. F.Xo'jaev 1913-yilda jadidlar harakatiga kelib qo'shiladi va Buxoroda demokratik harakat ma'naviyatsiz bo'lmashligini anglab, aholi o'rtasida bilim, ma'rifat va madaniyat tarqatish uchun sa'y-harakat ko'rsatadi. Jumladan, u tomonidan ishlab chiqilgan besh yillik reja asosida xalq maorifi sohasida bajarilishi lozim bo'lgan quyidagi vazifalarni ilgari suradi:

1. Shaharlarda umumiy boshlang'ich ta'limga o'tish va qishloqlarda bunga o'tish tayyorgarligini ko'rish;
2. Katta yoshdagi aholi orasida mumkin qadar ko'proq kishining savodsizligini tugatish;
3. Respublika xalq maorifi xalq xo'jaligining malakali ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyojini imkon boricha qondirish [8].

Xulosa. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, buyuk mutafakkirlar va ma'rifatrarvarlarning ma'naviy yangilanishga oid qarashlari XX asr boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda biz uchun ham shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarbdir. Zotan, jadidchilik harakati o'zining o'ta ahamiyatli ilmiy, madaniy va san'atij yangiliklari bilan o'zbek jamiyatining yangilanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Uchinchi Renessansni yaratishda, bu harakatning roli ijtimoiy taraqqiyot, ta'lim tizimining islohati va madaniy yangilanish kabi yo'nalishlarda juda katta bo'lgan. Jadidchilar o'z fikrlarini, g'oyalarini amalga oshirishda nafaqat o'zining zamonaviylikka intilganligini, balki xalqni rivojlantirishga bo'lgan chuqur niyatlarini ham ko'rsatishgan.

ADABIYOTLAR:

1. Янги Ўзбекистон Учинчи Ренессанс оstonасида. -Т: "Zamin nashr", 2021. 212 б.
2. Nazarov Q. Jadid falsafasi // "Yangi O'zbekiston" gazetasi, 2024 yil 16 yanvar, № 11.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. 5-jild. -T.: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023. -B.40-41. (408)
4. Xo'jayev F. Buxoro inqilobining tarixiga oid materiallar. -Toshkent. 1997. -B.111.
5. Abdurauf Fitrat. Najot yo'li. -T.: Ma'naviyat, 2022. -B.14-15. (96 b.)
6. Абдулҳамид Чўлпон Асарлар: Жилд IV. (Масъул муҳаррир: Доноҳон Неъматова). -Т.: Академнашр, 2016. -Б.4. (320 б.)
7. Мунавварқори Абдурашидхонов. Танланган асарлар. -Тошкент: "Маънавият", 2003. -Б.77.
8. Хўжаев Ф. Танланган асарлар: 2 том (Масъул муҳаррир: Ш.С.Саломова) – Тошкент: Фан, 1978. – Б. 289.
9. Sobirovich, T. B. (2023). Basic Criteria for Building the Third Renaissance in Uzbekistan. // *Asian Journal of Applied Science and Technology (AJAST)*, 7(1), 149-157.
10. Turdiyev, B. (2021). Behbudi's views on the spiritual renewal of society. // *Центр Научных Публикаций (buxdu. uz)*, 5(5).